



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>



LINGUISTIC FEATURES OF AT-TAHAR WATTAR'S NOVEL "THE EARTHQUAKE"

Ra'no U. Khodjayeva

*Doctor of Philological sciences, Professor
Higher School of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
rkhodjayeva@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

Maftuna J. Mahmudjonova

*Master's Degree Student (1st Year)
Graduate School of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
maftunasm@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: At-Tahar Wattar, The Earthquake, linguopoetics, semantics, intertextuality, spatial poetics, bridge lexeme, character speech, symbolism, Qur'anic allusions.

Received: 08.05.26

Accepted: 09.05.26

Published: 10.05.26

Abstract: This article analyzes the linguistic features of At-Tahar Wattar's novel "The Earthquake" through a linguopoetic approach. The study examines the semantic and semiotic load of the title, evaluative units in the protagonist's speech, the functions of the images of the "rock" and "smell" within spatial poetics, and the compositional-semiotic role of the lexeme "bridge." It also reveals the use of Qur'anic intertextuality in the novel and its ideological and artistic impact. The analysis demonstrates that the real "earthquake" in the work is interpreted not as a natural phenomenon but as a linguopoetic expression of the protagonist's psychological upheaval and the social imbalance within society.

AT-TOHIR VATTORNING "ZILZILA" ROMANIDA TIL XUSUSIYATLARI

Ra'no U. Xodjayeva

*Professor, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rkhodjayeva@gmail.com*

Maftuna J. Mahmudjonova

Magistratura 1-bosqich talabasi

Arabshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

maftunasm@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: At-Tohir Vattor, "Zilzila" romani, lingvopoetika, semantika, intertekst, makon poetikasi, ko'prik leksemasi, qahramon nutqi, ramziylik, Qur'oniy ishoralar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada At-Tohir Vattorning "Zilzila" romanining til xususiyatlari lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda asar sarlavhasining semantik-semiotik yuki, qahramon nutqidagi baholovchi birliklar, makon poetikasida "qoya" va "hid" obrazlarining funksiyasi hamda "ko'prik" leksemasining kompozitsion-semiotik roli yoritiladi. Shuningdek, roman matnida Qur'oniy intertekstning qo'llanishi va uning g'oyaviy-badiiy ta'siri ochib beriladi. Tahlillar natijasida asarda haqiqiy "zilzila" tabiiy hodisa emas, balki qahramon ongidagi psixologik silkinish va jamiyatdagi ijtimoiy nomutanosiblikning lingvopoetik ifodasi ekani asoslab beriladi.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ РОМАНА "ЗЕМЛЯТРЕСЕНИЕ" АТ-ТАХИРА ВАТТАРА

Раъно У. Ходжаева

Доктор филологических наук, Профессор

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

rkhodjayeva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

Мафтунна Ж. Махмуджоновна

Магистрант 1 курса

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

maftunasm@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ат-Тахир Ваттар, роман «Землетрясение», лингвопоэтика, семантика, интертекст, поэтика пространства, лексема «мост», речь персонажа, символизм, коранические аллюзии.

Аннотация: В данной статье языковые особенности романа Ат-Тахира Ваттара «Землетрясение» анализируются на основе лингвопоэтического подхода. В исследовании освещаются семантико-семиотическая нагрузка заглавия произведения, оценочная лексика в речи персонажа, функции образов «скалы» и

«запах» в поэтике пространства, а также композиционно-семиотическая роль лексемы «мост». Кроме того, раскрывается использование коранического интертекста в тексте романа и его идейно-художественное воздействие. В результате анализа обосновывается, что подлинное «землетрясение» в произведении трактуется не как природное явление, а как лингвопоэтическое выражение психологического потрясения героя и социального дисбаланса в обществе.

Kirish. At-Tohir Vattor Jazoir arab romanchiligining mustaqillikdan keyingi eng yetuk namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodida xalq taqdiri va ijtimoiy adolat masalalari namoyon bo‘ladi. Adibning “Zilzila” romani (1974) ana shu jihatlarning yorqin namunasi bo‘lib, asarda siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar fonida shaxs psixologiyasi va sinfiy ziddiyatlar lingvopoetik vositalar yordamida quriladi. Adib asarda o‘z niyatini to‘liq amalga oshirish uchun arab tilining lingvistik salohiyatidan keng foydalangan. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolada sarlavhaning semantik yuki, “ko‘prik” leksemasi, ma’kon poetikasi doirasida “qoya” va “hid” birliklarining semantikasi hamda romandagi voqealar Qur’oni intertekst orqali ifodalanishi tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqot At-Tohir Vattorning “Zilzila” romani lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar bir necha nazariy va amaliy manbalarga tayanadi. Avvalo, At-Tohir Vattorning o‘zi yaratgan “Zilzila” romani asosiy birlamchi manba sifatida xizmat qiladi. Asar Jazoir jamiyatidagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarni badiiy ifodalash bilan birga, til birliklari orqali murakkab semantik va semiotik tizimni namoyon etadi. Shu bois romanni lingvopoetik tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Arab adabiyotshunosligida ushbu roman bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, til qatlamlarini (leksik, stilistik, diskursiv) tizimli o‘rganishga qaratilgan. Mazkur tadqiqotda asarning til darajalari va ularning funksional xususiyatlari yoritilgan bo‘lsa-da, lingvopoetik integratsiya va semiotik tizim masalalari yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan.

Lingvopoetika nazariyasiga oid ilmiy qarashlar ham ushbu ishning nazariy asosini tashkil etadi. Xususan, lingvopoetika matndagi til birliklarining badiiy-estetik vazifasini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, semantika, stilistika va diskurs tahlilini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada sarlavha semantikasi, obrazlar tizimi (“qoya”, “hid”), hamda “ko‘prik” leksemasi lingvopoetik birlik sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, Qur’oni intertekst masalasi ham muhim ilmiy manbalarga tayanadi. Qur’oni Karim va uning tafsirlariga

oid manbalar romandagi diniy ishoralarni ochib berishda asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, "zilzila" tushunchasining diniy-semiotik talqini romandagi psixologik va ijtimoiy qatlamni chuqurroq anglash imkonini beradi.

O'zbek tilshunosligida ham lingvopoetik yondashuv asosida badiiy matnlarni o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud. Biroq aynan At-Tohir Vattorning "Zilzila" romani misolida semantik, semiotik va intertekstual qatlamlarni kompleks tarzda o'rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu jihatdan, mazkur tadqiqot mavjud ilmiy ishlarni umumlashtirgan holda, romanning lingvopoetik tizimini ko'p qatlamli yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur maqolada At-Tohir Vattorning "Zilzila" romanini o'rganishda kompleks lingvistik va adabiy metodlar tizimidan foydalanildi. Bu maqolada lingvopoetik tahlil metodi asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod orqali matndagi til birliklarining nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki ularning badiiy-estetik vazifasi, konnotativ yuklamasi va matn ichidagi funksional roli tahlil qilindi. Xususan, sarlavhaning semantik kengayishi, "ko'prik" leksemasining takroriyliigi hamda "hid" va "qoya" obrazlarining poetik funksiyasi shu metod asosida o'rganildi. Ikkinchidan, semantik tahlil metodi qo'llanildi. Bu metod yordamida "zilzila" tushunchasining lug'aviy va konnotativ ma'nolari, shuningdek, uning diniy, psixologik va ijtimoiy qatlamlari ochib berildi. Natijada, mazkur birlikning ko'p qatlamli semantik struktura ekanligi aniqlandi. Uchinchidan, semiotik yondashuv asosida roman belgilar tizimi sifatida talqin qilindi. "Ko'prik", "qoya", "hid" kabi birliklar oddiy leksik element emas, balki ma'no hosil qiluvchi belgilar tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Bu esa asardagi badiiy modelni chuqurroq tushunishga imkon berdi. Shuningdek, tadqiqotda intertekstual tahlil metodidan foydalanildi. Qur'on oyatlari va diniy ishoralarning matndagi qo'llanishi, ularning qahramon ongidagi aks etishi va g'oyaviy yuklamasi tahlil qilindi. Bu metod romanning diniy-semiotik qatlamini ochishda muhim rol o'ynadi. Bundan tashqari, diskursiv tahlil elementi ham qo'llanilib, qahramon nutqidagi baholovchi va kamsituvchi birliklar orqali ijtimoiy ziddiyatlarning til orqali ifodalanishi o'rganildi.

Tadqiqotda yuqoridagi metodlarning o'zaro integratsiyasi asosida kompleks yondashuv amalga oshirildi. Bu esa romanning lingvopoetik tizimini yaxlit holda tahlil qilish va uning semantik, semiotik hamda intertekstual xususiyatlarini chuqur yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Roman sarlavhasi: "Zilzila"ning semantik yukiga to'xtalsak, "zilzila" so'zi lug'aviy jihatdan qattiq silkinish, falokat, ofat ma'nolarini ifodalaydi. Biroq roman kontekstida mazkur birlikning semantik hajmi kengayib, ko'p qavatli ramziy belgi sifatida namoyon bo'ladi:

Romanda tashqi "zilzila" – jamiyatdagi yangi islohotlar, yer munosabatlarining qayta taqsimlanishi hamda sinfiy o'zgarishlar bilan bog'liq ijtimoiy silkinishlarni bildiradi. Lekin romandagi salbiy qahramon bo'lmish Shayx Abdulmajid ichki dunyosi uchun "zilzila" – bosh

qahramon ongida kechayotgan qo‘rquv, nafrat, mulkni yo‘qotish vahimasi, psixologik parchalanishni ifodalaydi. Masalan, sarlavhaning semantik-semiotik yuklamasi Qur‘oniy ishoralar orqali yanada kuchayadi:

إذا زلزلت الأرض زلزالها

و أخرجت الأرض أثقالها

(The Holy Quran, 2010, p. 617)

Keling bu oyat tarjimasiga to‘xtalsak:

Vaqtiki, yer o‘ziga xos zilzilaga tushsa,

Va yer o‘z yuklarini otib chiqarsa... (Muhammad Sodiq, 2016, p. 632), ya‘ni yer o‘z hajmi, o‘lchoviga yarasha katta zilzilaga tushsa. Qiyomat qoim bo‘lganda, yer butunlayicha qattiq zilzilaga tushadi. Hozirgiga o‘xshab uning ba‘zi bir nuqtasi sal-pal silkinib qo‘ymaydi. Balki yer o‘zining butun vujudi bilan, hech bir nuqtasi ham qolmay nihoyatda shiddatli zilzilaga tushadi. Ana o‘sha, yerning o‘ziga xos zilzilaga tushgani bo‘ladi. Qiyomat kunida mazkur shomil va shiddatli zilzila oqibatida yer o‘z ichidagi barcha narsalarni: ma‘danlar, xazinalar, o‘liklar va boshqa narsalarni tashqariga chiqarib tashlaydi (Muhammad Sodiq, 2016, p. 633). Bu intertekst qahramon tilida “qiyomat”, “jazolanish” va “halokat” semalarini faollashtirib, birlikning konnotativ maydonini kengaytiradi. Natijada, “Zilzila” romani sarlavhasi diniy-mifologik, ijtimoiy-siyosiy va psixologik qatlamni birlashtirgan markaziy semiotik belgi vazifasini bajaradi.

Qahramon nutqida ijtimoiy ziddiyatning lingvistik ifodasi kuzatiladi. Roman diskursining markazida Abdulmajid Bularvoh (بو الأرواح) turadi. U matnda xalq manfaatlariga zid pozitsiyani egallagan, mulkparastlik va sinfiy nafrat bilan xarakterlanovchi tip sifatida ko‘rsatiladi. Qahramonning nutqiy portreti, asosan, til birliklarining konnotativ imkoniyatlari vositasida ochib beriladi. Masalan, o‘z vatandoshlariga nisbatan kamsituvchi xalq رعا (ra‘a) kabi baholovchi, kamsituvchi so‘zlar bilan nomlashi, “bosib kirish”, “shaharni egallash” mazmunidagi fe‘llar اقتحموا orqali oddiy xalqning shaharga kelishi “bosqinchilik” sifatida ko‘rsatiladi tajovuz semantikasi kuzatiladi.

Mazkur lingvopoetik hodisalar majmuyi roman g‘oyaviy yo‘nalishini kuchaytiradi: asarda haqiqiy “zilzila” tabiiy hodisa sifatida emas, balki inson ongida kechayotgan psixologik silkinish hamda ijtimoiy tuzumdagi adolatsizlikning semiotik ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Makon poetikasi: shahar, “qoya” va “hid” semantikasi. “Zilzila”da shahar (Konstantina) oddiy dekoratsiya emas, balki ma‘no ishlab chiqaruvchi badiiy tizimdir. Makon uch belgida jamlanadi:

a) qoya obrazi

Shahar “qoya” ustida turishi — barqarorlik ramzi bo‘lishi mumkin edi, ammo qahramon ongida u portlashga loyiq, yorilishi kerak bo‘lgan og‘irlik obraziga aylanadi. Bu “qoya”ning

“ichidan yemirilishi” g‘oyasi qahramon nafrati bilan uyg‘unlashib, “zilzila”ni “najot”dek tasavvur qildiradi.

b) hid (شم) — ijtimoiy-ideologik belgiga aylanishi

Matnda hid sezgisi doimiy takrorlanadi: tana hidlari, bozor hidlari, sho‘rva, qovurilgan taomlar, chirindi hidlari va hokazo. Bu faqat realizm emas. Hid roman ichida: “eski” - kolonial zamon, “nozik” hidlar – yangi zamon (xalq ko‘payishi) va “og‘ir” hidlar qarama-qarshiligini yaratadi. Bu orqali qahramonning sinfiy nafratini “sezgi darajasida” ifodalaydi. Demak, “hid” romanda lingvopoetik indikator: u makon o‘zgarishini ham, qahramon ongidagi kamsitishni ham ko‘rsatadi.

“Ko‘prik” leksikasi va roman texnikasi: arxitektonik qurilish modeli. Tahlil qilinayotgan matnda eng muhim lingvopoetik tayanchlardan biri — “ko‘prik” (الجسر) leksemasining takroriyliigi hamda uning roman bo‘limlari bilan struktur uyg‘unligidir. Asar Konstantinaning “yetti ko‘prigi” haqidagi tasavvur bilan boshlanadi va kompozitsion jihatdan roman ham yetti bo‘limga ajratilgan bo‘lib, har bir bo‘lim muayyan ko‘prik nomi bilan semantik bog‘lanishda beriladi. Bu holat “ko‘prik” birligining matnda ko‘p funksiyali semiotik element sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi. Bu yerda “ko‘prik” ikki vazifani bajaradi:

1) Kompozitsion vazifa: yetti ko‘prik = yetti bo‘lim = qahramon harakati va izlanishining yetti “bosqich”i. Shu tariqa, ko‘priklar voqealar rivojini bog‘lovchi va syujetni tashuvchi kompozitsion tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

2) Semiotik vazifa. Ko‘prik romanda ba‘zan “xalos bo‘lish” (jar ustidan o‘tish), ba‘zan “halokat” (hovliqish, jarlik), ba‘zan “sinfiy filtr” (qahramon tasavvurida “solihlar qutuladi”) ma‘nolarini beradi.

Ayniqsa yakuniy bo‘limda “ko‘prik” takrorining keskin ortishi qahramon ruhiy holatini ifodalaydi: takror kuchaygan sari — vahima, gallyutsinatsiya, “zilzila bo‘ldi” degan xayol ham kuchayadi. Natijada “ko‘prik” so‘zi oddiy nom emas, psixologik parchalanish signaliga aylanadi.

At-Tohir Vattorning “Az-Zalzala” (“Zilzila”) romani o‘zining mazmuniy qatlamlari, ramziy tizimi va diniy-falsafiy yondashuvi bilan ajralib turadi. Asarda Qur‘oniy intertekst muhim semantik vosita sifatida ishlatilgan bo‘lib, ayniqsa qiyomat tasvirlari orqali jamiyatdagi inqiroz, axloqiy tanazzul va ijtimoiy beqarorlik badiiy talqin qilinadi. Qur‘oniy intertekst asarning asosiy g‘oyaviy ustunlaridan biri hisoblanadi. Muallif Qur‘on oyatlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtiboslar keltiradi, xususan:

“...تذهل المرضعة عما أرضعت، وتضع كل ذات حمل حملها” (The Holy Quran, 2010, p. 332) ya‘ni, emizayotgan onalar bolasini unutar va barcha homiladorlar o‘z homilasini tashlab yuborar mazmunidagi oyatlar bir necha marotaba takrorlanadi. Bu iqtiboslar “Zalzala” surasi va boshqa qiyomatga oid oyatlarga ishora qilib, asardagi voqealarni metafizik darajaga olib chiqadi. Bu yerda

intertekst oddiy bezak emas, balki mazmuni chuqurlashtiruvchi, voqealarni ilohiy kontekstda talqin etuvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Qiyomat semantikasi romanning markaziy konseptlaridan biridir. Asarda zilzila oddiy tabiiy hodisa sifatida emas, balki “his etiladigan ruhiy-ijtimoiy jarayon” sifatida talqin qilinadi. Qahramonlardan biri hatto: “Zilzila haqiqiy – bu hisdir” degan fikrni ilgari suradi. Bu juda muhim nuqta: muallif qiyomatni faqat oxiratdagi yakuniy hodisa sifatida emas, balki jamiyat ichida sodir bo‘layotgan inqirozlar orqali bosqichma-bosqich yuz berayotgan jarayon sifatida ko‘rsatadi.

Asarda qiyomat alomatlarini ramziy shaklda berilgan. Masalan: odamlarning haddan tashqari ko‘payib ketishi, shaharlarning tartibsiz va bo‘g‘iq holga kelishi, ijtimoiy tabaqalar o‘rtasidagi keskinlik, qadriyatlarining buzilishi. Bularning barchasi hadis va Qur‘ondagi qiyomat alomatlariga ishora qiladi. Xususan, asarda keltirilgan “yalangoyoq cho‘ponlarning baland binolar qurishi” haqidagi ishora ham islomiy esxatologiya (qiyomat) bilan bog‘liq. Bu orqali muallif tarixiy o‘zgarishlarni diniy bashoratlar bilan uyg‘unlashtiradi.

Qiyomat semantikasi individual psixologiya orqali ham ochib beriladi. Asar qahramoni Shayx Abdulmajid ichki bezovtalik, qorong‘ulik hissi va ruhiy siqilish orqali qiyomatni “ichki tajriba” sifatida boshdan kechiradi. Matnda “qorong‘i rang”, “og‘ir modda”, “ichki bosim” kabi metaforalar takror-takror uchraydi. Bu obrazlar qiyomatning tashqi hodisadan ko‘ra ichki holat sifatida talqin qilinishini ko‘rsatadi.

Qur‘oniy intertekst orqali muallif jamiyatni tanqid qiladi. Qahramonlar qiyomatni axloqiy buzilish bilan bog‘laydi: gunoh, zulm, ijtimoiy adolatsizlik – bularning barchasi “qiyomatni tezlashtiruvchi omillar” sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda diniy matnlar ijtimoiy tanqid vositasiga aylanadi. Ya‘ni, Qur‘oniy matnlar faqat diniy emas, balki ideologik va ijtimoiy funksiyani ham bajaradi.

Asarda qiyomat global emas, lokal hodisa sifatida ham talqin qilinadi. Konstantina shahri go‘yoki kichik “qiyomat makoni”ga aylanadi. Shahardagi tartibsizlik, ifloslik, haddan tashqari zichlik va ruhiy bosim qiyomat manzaralarini eslatadi. Bu orqali muallif “har bir jamiyat o‘z qiyomatini yaratadi” degan g‘oyani ilgari suradi.

Shunday qilib, “Zalzala” romanida Qur‘oniy intertekst va qiyomat semantikasi o‘zaro uzviy bog‘langan. Qur‘on oyatlari orqali muallif voqealarni ilohiy kontekstga joylashtiradi, qiyomat esa metaforik va falsafiy tushunchaga aylantiriladi. Zilzila – bu nafaqat tabiiy hodisa, balki jamiyatning ichki parchalanishi, qadriyatlarining yemirilishi va inson ruhiyatidagi inqirozning ramzidir. Shu jihatdan asar diniy matn va zamonaviy ijtimoiy haqiqat o‘rtasidagi murakkab dialogni aks ettiradi. Roman tilining poetik quvvatini oshirgan muhim qatlamlardan biri — Qur‘oniy intertekst. Qahramon ayrim manzaralarni “qiyomat”ga qiyoslaydi, “odamlar mast, aslida mast emas” kabi ma‘no maydonlari bilan tasvirlaydi. Bu intertekst voqea ta‘sirini

kuchaytiradi, qahramonning dinni “oqlovchi” vositaga aylantirishi orqali tanqidiy ma’no beradi, “zilzila”ning sarlavhadagi diniy og‘irligini matn ichida doimiy eslatma qilib turadi. Ammo bosh qahramonning tilida, ongida Qur’on oyatlari qanchalik aylanmasin, amalida buning aksini kuzatamiz.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Zilzila” romanida lingvopoetik tizim ko‘p qatlamli va o‘zaro integratsiyalashgan strukturaga ega. Asarda sarlavhaning falokat semantikasi, Qur’oniyl intertekstual ishoralar, qahramon nutqidagi baholovchi va kamsitivchi birliklar, makon poetikasida “qoya” obrazining semantik transformatsiyasi hamda “hid”ning mafkuraviy belgiga aylanishi yagona badiiy-semantik tizimni hosil qiladi. Ayniqsa, “ko‘prik” leksemasi orqali yuzaga kelgan “yetti bo‘lim – yetti ko‘prik” arxitektonik modeli roman kompozitsiyasining struktur markazi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur model fazoviy tasvir, psixologik dinamika va syujet rivojini yagona semiotik maydonga birlashtiradi. Natijada muallif ijtimoiy-siyosiy muammolarni bevosita publitsistik bayon yo‘li bilan emas, balki ramz, takror, sezgi obrazlari va intertekstual ishoralar orqali badiiylashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, asardagi haqiqiy “zilzila” tabiiy hodisa sifatida emas, balki qahramon ongida yuz berayotgan psixologik dezintegratsiya hamda jamiyatdagi axloqiy-ijtimoiy nomutanosiblikning lingvopoetik ifodasi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot At-Tohir Vattorning “Zilzila” romanini lingvopoetik yondashuv asosida tahlil qilish orqali badiiy matnda til birliklarining semantik, semiotik va intertekstual imkoniyatlari naqadar keng ekanini namoyon etdi. Asarda til vositalari orqali yaratilgan badiiy model ijtimoiy-siyosiy muammolarni bevosita emas, balki ramziy va poetik shaklda ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan, roman zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlar uchun muhim obyekt bo‘lib, badiiy matnni kompleks tahlil qilishda samarali nazariy asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Domkina, O.N., Progogina S.V. (1993). The literature of Algeria. Aljirskaya literatura. – Moscow: Vostochnaya Literatura. – 732 p. (in Russian)
2. “Language Levels in Tahar Wattar’s Novel ‘The Earthquake’.” Journal of Arts and Languages, Volume 25, Issue 2, pp. 143–153 (2025). Available at: <https://asjp.cerist.dz/en/article/270893> (in English)
3. Muhammad Sodiq, Muhammad Yusuf (2016). Tafsir Hilol (6 volumes). – Tashkent: Hilolnashr. – 670 p. (in Uzbek)
4. The Holy Qur’an (2010). Qur’oni karim. – Tashkent: Publication of the Muslim Board of Uzbekistan. – 620 p. (in Uzbek)
5. Wattar At-Tahir. (1974). The Earthquake. Az-Zalzal. – Algeria. National Book Company. – 321 p. (in Arabic)

6. Wattar At-Tahir. (1986). The Earthquake. Zilzila. The translation of M. Yusupov – Tashkent: Raduga. – 352p. (in Uzbek).